

MAMLAKATDA INVESTITSION MUHITNI YANADA KENGAYTIRISH RIVOJLANISH SAMARADORLIGINING JADAL SUR'ATLARIDA

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy – siyosiy islohatlar bugungi kunda iqtisodiyotimizning yanada yuqori va barqaror sur'atlarda o'sish imkoniyatlarini yaratmoqda. Prezidentimiz tomonida qabul qilingan 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni bilan “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi”¹. Davlatning bank-moliya faoliyatiga beradigan e'tibori mamlakat taraqqiyotida barqaror raqobatchilik muhitini tashkil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, mamlakatimizda ham bank-moliya tizimini jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligini aytib o'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar strategiyasining samaradorligi, ayni vaqtda ham ko'plab davlatlar o'z boshidan o'tkazayotgan inqirozga qarshi kurashish borasida to'plangan tajribalar nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar, jahondagi yetakchi ilmiy markazlar tomonidan yuqori baholanayotganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Mamlakat hayotida amlaga oshirilayotgan bu kabi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar natijasida yuqori darajada rivojlanishga erishish shubhasiz. Yaratilayotgan investitsion muhit hamda ko'plab imtiyozlar nafaqat mahalliy balki xorijiy investorlarni ham e'tiborini jalb qilmasdan qoldirmaydi. Moliya-bank tizimi orqali iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar bu tadbirkorlik bo'ladimi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasi bo'ladimi rivojlanishning muhim

¹“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. 07.02.2017. PF-4947.

asosi b'lib xizmat qiladi. Buning natijasini hozirda iqtisodiyotimizda jadal o'sish sur'atlari bilan borayotgan tadbirkorlik subyektlari sur'atida ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda yaratilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlarga unumli foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning iqtisodiyotimizdagi salohiyatini yanada oshirishimiz lozim. Birgina o'tgan 2016 yilda respublikamiz hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajaga yetib, 80,3 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 foiz va Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50-70 foizlar oralig'ida bo'lib, o'rta darajani qayd etgan. Shu bilan birga, past daradaja qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan².

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi³, (foizda)

	yillar				2000- 2016 yillarda o'zgarish (+;-)
	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2016 y.	
Yuqori darajada					
Namangan viloyati	33,4	45,2	76,0	80,3	46,9
Jizzax viloyati	37,1	58,3	77,3	80,3	43,2
Samarqand viloyati	44,3	49,9	73,6	78,0	33,7
Surxondaryo viloyati	39,1	42,8	71,7	75,3	36,2
Xorazm viloyati	34,2	47,1	71,8	74,2	40,0
O'rta darajada					
Sirdaryo viloyati	38,9	59,8	77,4	68,7	29,8
Buxoro viloyati	33,0	40,7	64,1	67,9	34,9
Andijon viloyati	32,9	35,8	54,7	66,0	33,1
Farg'ona viloyati	32,0	40,8	59,5	63,4	31,4
Toshkent shahri	41,5	46,4	49,9	58,9	17,4

²O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bo'yicha yakuniy xulosalar. www.cbu.uz sayti ma'lumotlari.

³O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bo'yicha yakuniy xulosalar. www.cbu.uz sayti ma'lumotlari.

Toshkent viloyati	34,0	32,3	54,7	57,1	23,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	45,1	63,6	57,0	30,1
Qashqadaryo viloyati	25,8	34,9	55,0	51,7	25,9
<i>Past darajada</i>					
Navoiy viloyati	21,5	18,5	34,4	37,6	16,1

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada yaxshilanishini ta'minlash maqsadida tijorat banklari o'rni muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash uchun ajratilgan kreditlar hajmi 2016 yilning 1 yanvar holatiga kelib deyarli uch barobarga oshganligini, ya'ni 15870 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi, xorijiy davlatlarda bu sohani rivojlantirish, jumladan, Germaniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarda mavjud ish o'rinlarining qariyb 70 foizi kichik biznes hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa mamlakatlarda ham kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoyda eksport hajmining qariyb 60 foizi kichik biznes vakillari hissasiga to'g'ri kelayotgani ham mazkur soha jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallaganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishida shu kabi sohalarning takomillashib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo'lgan kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Kichik biznes nafaqat iqtisodiyotdagi ma'lum bir bo'shliqlarni to'ldiradi, balki uni diversifikatsiya qilish va barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda o'ta muhim rol o'ynaydi"⁴.

⁴O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. Toshkent-2013

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohatlar aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratishga keng imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatning yuqori va barqaror o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash, bozor iqtisodiyotini rivojlanganlik darajasini oshirish, biznes subyektlarining eksport salohiyatini yanada yaxshilash bugungi kunda muhim o‘rin egallaydi.

Mamlakatda investitsion muhitni yanada kengaytirish, rivojlanish samaradorligi va unga kichik biznesning ta’siri tahlil qilingan.